



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayaviddinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**TURIZMNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

ОСОБЕННОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ ТУРИЗМА

SPECIFIC FEATURES OF GOVERNMENT SUPPORT FOR TOURISM DEVELOPMENT

Raxmatova Sevinch Sobir qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi 1- kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada turizm sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha tahlil qilinadi. Muallif turizmni rivojlantirishda davlatning roli, tarixiy va zamonaviy yondashuvlar, jahon va mintaqaviy tajriba, hamda O‘zbekiston misolida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni ilmiy asosda ko‘rib chiqadi. Turizm infratuzilmasini yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish, kadrlar tayyorlash va normativ-huquqiy bazani mustahkamlashda davlatning ustuvor vazifalari yoritiladi. Ilmiy manbalar tahlili asosida sohadagi muammo va istiqbollar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: turizm, davlat qo‘llab-quvvatlashi, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma.

В данной статье проводится всесторонний анализ теоретических и практических аспектов государственной поддержки туристической отрасли. Автор рассматривает роль государства в развитии туризма, исторические и современные подходы, мировой и региональный опыт, а также меры, реализуемые в Узбекистане. Особое внимание уделяется приоритетным задачам государства по совершенствованию инфраструктуры, привлечению инвестиций, подготовке кадров и укреплению нормативно-правовой базы. На основе анализа научных источников выявляются основные проблемы и перспективы отрасли.

Ключевые слова: туризм, государственная поддержка, экономическое развитие, инфраструктура.

This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of government support for the tourism sector. The author examines the role of the state in tourism development, historical and modern approaches, global and regional experiences, as well as specific measures implemented in Uzbekistan. The study highlights the state’s priority tasks in improving tourism infrastructure, attracting investments, training personnel, and strengthening the regulatory framework. Based on the analysis of scientific sources, the article identifies key challenges and prospects in the sector.

Keywords: tourism, government support, economic development, infrastructure.

Turizmni jahon iqtisodiyotida va milliy taraqqiyotda tutgan o‘rni so‘nggi o‘nyilliklarda tobora ortib bormoqda. Zamonaviy sharoitda turizm nafaqat mamlakatning madaniy va tarixiy merosini namoyon etuvchi sohalardan biri, balki iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish va valyuta tushumlarini oshirishda muhim omilga aylangan. Ayniqsa, globalizatsiya jarayonlari, transport va axborot texnologiyalarini rivojlanishi turizm salohiyatini yanada kengaytirdi. Shu bilan birga, turizm bozorida raqobat kuchayib, davlatning turizmni qo‘llab-quvvatlash siyosati va strategiyasi muvaffaqiyatli rivojlanish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslari, tarixiy va zamonaviy modellari, jahon amaliyoti hamda O‘zbekistondagi vazifalar ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ilmiy mmanbalarga

suyangan holda, sohadagi muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar aniqlanadi, shuningdek, yangi statistik ma’lumotlar va jadvallar asosida tahliliy xulosalar chiqariladi.

Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning nazariy-metodologik asoslari turli yo‘nalishlarda shakllangan bo‘lib, uning ilk konseptual asoslari XIX asr oxiri-XX asr boshlarida jahon iqtisodiyot va ijtimoiy taraqqiyot nazariyalarida o‘z ifodasini topgan. Klassik iqtisodchi A. Smit va D. Rikardo asarlarida davlatning iqtisodiyotdagi roli cheklangan deb qaralsa-da, zamonaviy davrda turizmni strategik sohalardan biri sifatida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Turizmni rivojlantirishda davlatning ishtiroki tahlilida Keynsian maktabning “faol davlat” konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Jon Meynard Keyns davlatning bozor mexanizmlarini to‘ldiruvchi va ijtimoiy- iqtisodiy muvozanatni ta’minlovchi asosiy subyekt sifatida ko‘rgan. Bu qarashlar turizm sohasida ham o‘z aksini topgan: infratuzilmaga sarmoya kiritish, reklama va marketingni qo‘llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash va normativ-huquqiy bazani mustahkamlash kabi vazifalar davlatning zimmasida bo‘ladi [1].

Turizmni davlat tomonidan tartibga solish nazariyasida instutsional yondashuv ham alohida o‘rin tutadi. Daglas Nort va Oliv’ye Uvilyamson kabi olimlar instutsional muhitni yaratish, huquqiy kafolatlar va qoidalar tizimini shakllantirish orqali turizmni barqaror rivojlanishiga davlatning ta’sirini ta’kidlaydilar. Instutsional muhitning samaradorligi, xususan, litsenziyalash, soliq imtiyozlari, yerga egalik huquqi va investitsiya muhitini yaxshilash turizm sohasida davlatning qo‘llab-quvvatlovchi funksiyalarini mustahkamlaydi. [2] Shu nuqtai nazardan, turizm infratuzilmasining rivojlanishi, logistika, transport va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturlari muhim ahamiyatga ega.

Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning tarixiy evolyutsiyasiga nazar tashlasak, XX asrda turli mamlakatlarda turizm sektoriga davlat aralashuvining o‘ziga xos uslublari shakllangan. Masalan, Fransiya 1930-yillarda yirik transport va mehmonxona infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilingan, Germaniyada esa “Kraft durch Freude” (quvonch orqali kuch) dasturi orqali ommaviy turizmni joriy etishga e’tibor qaratilgan. 1950-1960-yillarda Yaponiya, Italiya va Ispaniya kabi mamlakatlarda turizmni iqtisodiy o‘sishning drayveri sifatida ko‘rish tendensiyasi kuchaygan. Bu jarayonda davlatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lgan: milliy turistik brend yaratish, transport va logistika infratuzilmasini yangilash, chet el sarmoyasini jalb qilish va mahalliy biznesni rag‘batlantirish. Sovet Ittifoqi tajribasida esa turizm sog‘lomlashtirish va ma’naviy-tarbiyaviy maqsadlarda davlat siyosatiga integratsiya qilingan.

Mintaqaviy va milliy olimlar tomonidan turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, M.Xalilov, A.Abdurahmonov, S.Boboyev kabi o‘zbek olimlari turizmni rivojlantirishda davlat siyosati, huquqiy-normativ baza va infratuzilmaviy islohotlarning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berishgan. Ular ta’kidlashicha, O‘zbekistonda turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar: zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, turistik xizmatlar sifatini oshirish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish. Shuningdek, jahon olimlari-J.Truman, P.Kraus, R.Battler, E.Koyen va boshqalarning asarlarida turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning turli modellari, ya’ni “liberal”, “intervensionist” va “gibrid” yondashuvlar ilmiy asosda tahlil qilingan.

Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning amaliy jihatlar va empirik tadqiqotlar sohasida ham keng ko‘lamli ilmiy ishlar mavjud. Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida turizm sohasini rivojlantirish uchun davlat tomonidan grantlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va infratuzilmaviy loyihalarga sarmoyalar ajratiladi. Jahon Banki va Xalqaro Valyuta Fondining hisobotlarida turizmning milliy iqtisodiyotga qo‘shgan hissasi, davlatning qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Masalan, Ispaniyada davlat tomonidan amalga oshirilgan “Plan de Turismo Español” dasturi natijasida 2000–2019-yillarda mamlakatga kelgan xorijiy turistlar soni 50 milliondan 83 millionga oshgan, turizmdan tushgan daromad esa 30 milliard yevrodan 92 milliard yevroni tashkil etgan. Bu natijalar davlatning strategik dasturlari va infratuzilmaga yirik sarmoya kiritish orqali erishilgan[3].

Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda normativ-huquqiy baza va islohotlarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. O‘zbekiston misolida, 2016–2023-yillarda qabul qilingan qonunlar va qarorlar, xususan, “Turizm to‘g‘risida”gi Qonun, “2022–2026-yillarda turizmni rivojlantirish strategiyasi”, “Viza va ro‘yxatdan o‘tish tartibini yengillashtirish” kabi hujjatlar sohaning jadal rivojlanishiga zamin yaratdi. Davlat tomonidan turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi mehmonxonalar qurish, ichki va tashqi turizmni targ‘ib qilish, kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi. 2022-yilda O‘zbekistonda 5 milliondan ortiq turist qabul qilingan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 6,6 millionga yetdi. Turizmdan olingan daromad 2022-yilda 1,7 milliard AQSH dollarini, 2023-yilda esa 2,2 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Turizm sohasida ish bilan band aholi soni 2019-yilda 260 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 320 mingga yetdi. Quyidagi jadvalda O‘zbekistonda turizm sohasining asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan (2020–2023-yillar):

1-jadval

O‘zbekistonda turizm sohasining asosiy ko‘rsatkichlari (2020–2023).

Yil	Xorijiy turistlar soni (mln)	Turizmdan daromad (mlrd. \$)	Turizmga band aholi
2020	1.5	0.3	180
2021	2.3	0.7	210
2022	5	1.7	260
2023	6.6	2.2	320

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma’lumotlari

Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tajribalar tahlil qilinganda, ularning umumiy jihatlari quyidagilardan iborat: infratuzilmani rivojlantirish uchun davlat tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, turistik brendni shakllantirish va xalqaro ko‘rgazmalarda faol ishtirok, turistik xizmatlarni sertifikatlash va standartlashtirish, viza va migratsiya tartibini soddalashtirish, mahalliy aholini turizmga jalb qilish va jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash. Masalan, Turkiyada davlatning turizmga doir strategik dasturlari natijasida 2010–2023-yillarda turistlar soni 27,5 milliondan 51,2 millionga, turizmdan tushgan daromad esa 20,8 milliard dollardan 54,3 milliard dollarga oshgan. Turkiya tajribasida davlat va xususiy sektor hamkorligi, yangi infratuzilma loyihalari, turistik hududlarni rivojlantirish, tashqi reklama va xalqaro aviareyslar sonini ko‘paytirish asosiy omillardan hisoblanadi. [4]

Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samaradorligi bo‘yicha amaliy tadqiqotlarda, xususan, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Dubay (BAA) tajribalari keng o‘rganilgan. Bu mamlakatlarda davlat tomonidan turizmni rivojlantirishga qaratilgan maxsus agentliklar, grant va subsidiya dasturlari, kadrlar tayyorlash markazlari, raqamli servislari va elektron hukumat imkoniyatlari keng joriy etilgan. Masalan, Singapurda “Singapore Tourism Board” agentligi davlat va xususiy sektor faoliyatini muvofiqlashtirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va marketingni tashkil etish bilan shug‘ullanadi. 2023-yilda Singapurga kelgan turistlar soni 11,4 millionni, turizmdan olingan daromad esa 21,1 milliard dollarni tashkil etdi. Bu natijalar davlatning strategik qo‘llab-quvvatlash siyosati va samarali boshqaruvi bilan izohlanadi.

Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda kadrlar tayyorlash va ta’lim tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Zero, raqobatbardosh turizm sektori uchun yuqori malakali mutaxassislar, servis va xizmat ko‘rsatish madaniyati, chet tillarini biladigan gidlar zarur. Yevropa va Osiyo mamlakatlarida davlat tomonidan turizm sohasiga oid oliy ta’lim muassasalari, malaka oshirish kurslari va ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilgan. O‘zbekistonda ham 2018–2023-yillarda turizm universiteti, kollej va litseylar, malaka oshirish markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2023-yilda turizm sohasida 12 mingdan ortiq talabalar ta’lim olgan, 3 mingdan ziyod kadrlar malakasini oshirgan. Bu jarayonlarda davlatning moliyaviy va tashkiliy qo‘llab-quvvatlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlatning roli ayniqsa muhim. Bunda yangi mehmonxonalar, transport va logistika markazlari, axborot-kommunikatsiya tizimlari, turistik

yo‘nalishlar va obyektlar qurilishiga davlat tomonidan investitsiya ajratish, yer va mol-mulkni imtiyozli shartlarda berish, xususiy sektorni rag‘batlantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Jahon tajribasida davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlari, konsessiya va subsidiyalar, soliq va bojxona imtiyozlari keng qo‘llanadi. O‘zbekistonda 2022–2023-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida 25 ta yangi mehmonxona, 10 ta turistik kompleks va 8 ta logistika markazi qurildi. Bu loyihalarga 380 million dollardan ortiq investitsiya jalb qilindi. Quyidagi jadvalda 2020–2023-yillarda O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan infratuzilma loyihalari keltirilgan:

2-jadval

**Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan infratuzilma loyihalari
(O‘zbekiston, 2020–2023).**

Yil	Mehmonxona	Turistik kompleks	Logistika markazi	Jalb qilingan investitsiya
2020	3	2	1	45
2021	6	2	1	60
2022	8	3	2	110
2023	8	3	4	165

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma’lumotlari

2025-yilda O‘zbekiston turizm sohasida sezilarli natijalarga erishdi. Xorijiy turistlar soni 10 million nafarga yetdi, turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromad esa 4 milliard AQSH dollaridan oshdi. Davlat tomonidan vizasiz rejim kengaytirildi, raqamli turizm xizmatlari rivojlantirildi hamda yangi mehmonxona va turistik majmualar qurilishi qo‘llab-quvvatlandi. 2026-yilda esa ekoturizm, ziyorat turizmi va raqamli turizm platformalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi [5].

Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning muammo va istiqbollari yuzasidan ilmiy-amaliy bahslar ham mavjud. Ba’zi olimlar davlatning ortiqcha aralashuvi bozor mexanizmlarining samaradorligini kamaytirishi, xususiy sektor faolligini cheklashi mumkinligini ta’kidlaydilar. Masalan, liberal iqtisodiy maktab vakillari davlatning asosiy vazifasi qonun ustuvorligini ta’minlash, raqobat muhitini yaratish va infratuzilmani rivojlantirish bilan cheklanishini ma’qullashadi. Lekin, jahon amaliyotida ko‘plab mamlakatlarda davlatning faol ishtiroki turizmning jadal o‘shishiga xizmat qilgani isbotlangan. Bu qarama-qarshi fikrlar davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini samarali tashkil etish, davlatning strategik vazifalarini aniq belgilash, bozor va davlat manfaatlarini muvofiqlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [6].

Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish yangi tendensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) hisobotlarida qayd etilishicha, raqamli xizmatlar, onlayn bronlash tizimlari, elektron viza, virtual reallik va mobil ilovalar turizmning o‘shish sur’atini yanada tezlashtirmoqda. 2023-yilda dunyoning 70 dan ortiq davlati elektron viza tizimini joriy etdi, 85% mehmonxonalar onlayn bronlash xizmatlarini taklif qilmoqda. O‘zbekistonda ham 2022-yildan elektron viza, onlayn ro‘yxatdan o‘tish, turistik obyektlarni raqamli xaritaga joylashtirish kabi servislar yo‘lga qo‘yildi. 2023-yilda 1,2 million turist elektron viza orqali mamlakatga kirdi. Bu raqamli innovatsiyalar davlatning turizmni qo‘llab-quvvatlash siyosatida muhim o‘rin egallamoqda [7].

Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri – barqaror turizm (sustainable tourism) konsepsiyasini amalga oshirishdir. Bu yo‘nalishda davlat ekoturizm, madaniy va tarixiy merosni asrash, mahalliy aholini turizmdan daromad olishga jalb qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash kabi vazifalarga alohida e’tibor qaratmoqda. Xalqaro amaliyotda davlat tomonidan barqaror turizm uchun grantlar, soliq imtiyozlari, ta’lim va atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlari amalga oshiriladi. O‘zbekistonda ham 2023-yilda 18 ta ekologik turizm obyekti, 12 ta madaniy meros obyekti davlat tomonidan muhofazaga olindi va 6 ta ekoturizm loyihasiga 12 million dollar investitsiya jalb qilindi.

Shu o‘rinda, turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samaradorligi ko‘p jihatdan huquqiy, institutsional va moliyaviy mexanizmlarning mustahkamligi, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, kadrlar tayyorlash tizimi va innovatsiyalarning joriy etilishiga bog‘liq ekanini ta’kidlash joiz. Ilmiy manbalar tahlili va jahon tajribasi asosida aytish mumkinki, turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning eng samarali modeli – bu strategik rejalashtirish, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish, normativ-huquqiy muhitni takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va raqobatbardosh turistik xizmatlarni rivojlantirishdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirishda davlatning faol ishtiroki, xususiy sektor bilan hamkorlik, innovatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sohaning barqaror va jadal rivojlanishi, milliy iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining farovonligini yuksaltirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Davlatning asosiy vazifalari – infratuzilmani yangilash, investitsiya muhitini yaxshilash, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, kadrlar tayyorlash hamda innovatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etishdan iborat. Jahon va milliy tajriba ko‘rsatmoqdaki, davlat-xususiy sheriklik, soliq va moliyaviy imtiyozlar, elektron xizmatlarni rivojlantirish, jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash turizm sohasining raqobatbardoshligini ta’minlaydi. O‘zbekistonda 2020–2023-yillarda amalga oshirilgan islohotlar va davlat dasturlari natijasida turizm sektorida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda: turistlar soni, turizmdan tushgan daromad, ish bilan band aholi va jalb qilingan investitsiyalar sezilarli darajada oshdi. Lekin, sohada hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham mavjud: infratuzilmaning barcha hududlarda teng rivojlanmasligi, xizmatlar sifatining ba’zi hollarda talab darajasida emasligi, kadrlar yetishmasligi va ekologik muammolar. Shu bois, kelgusida davlat tomonidan jadal va samarali qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, xususiy sektor faolligini oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning eng samarali yo‘li – bu strategik rejalashtirish, infratuzilmaviy islohotlar, kadrlar salohiyatini yuksaltirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmiy tahlil va empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish orqali turizm sohasi milliy iqtisodiyotda yetakchi o‘rinni egallaydi va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan, 1936.
2. North D.C., Williamson O.E. Institutions and Economic Performance. Cambridge University Press, 1994.
3. World Bank. Tourism for Development: 20 Reasons Sustainable Tourism Counts for Development. Washington D.C., 2017.
4. UNWTO. International Tourism Highlights, 2023 Edition. Madrid, 2023.
5. Abdurakhmanov A., Khalilov M. State Support for Tourism Development: Uzbekistan Experience. Tashkent: UzSWLU, 2022.
6. World Economic Forum. The Travel & Tourism Development Index 2023. Geneva, 2023.